

Viloyat statistika boshqarmasining  
2020 yil 1 dekabrdagi  
63-son buyrug‘iga  
7-ilova

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Samarqand viloyati statistika**  
**boshqarmasi boshlig‘i v.b.**  
**T.Sidikov “**  
**” 2020 yil**

**Kattaqo‘rg‘on tuman statistika bo‘limi to‘g‘risida**  
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Kattaqo‘rg‘on tuman statistika bo‘limining (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlar, shuningdek, faoliyatini tashkil etishni belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda Qo‘mita deb ataladi) yagona tizimiga kiruvchi hududiy davlat statistika organi hisoblanadi va o‘z faoliyatida Samarqand viloyati statistika boshqarmasiga (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb ataladi) bo‘ysunadi.

Tuman statistika bo‘limi mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib bevosita Davlat statistika qo‘mitasiga bo‘ysunadi;

3. Bo‘lim mahalliy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning statistik ma’lumotlardan foydalanuvchilarni rasmiy statistika axborotiga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg‘or statistika axboroti tizimining faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan davlat statistikasi sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Davlat statistika qo‘mitasining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalariga, Boshqarmaning buyruqlari va ko‘rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqa mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o‘zaro hamkorlikda, shu jumladan, idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

6. Bo‘lim o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturiga asosan Davlat

statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Tuman statistika bo‘limi (keyingi o‘rinlarda statistika organi deb ataladi) qonuniy faoliyatiga davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari va ularning mansabдор shaxslari tomonidan har qanday aralashishiga yo‘lqo‘yilmaydi.

8. Bo‘lim Samarqand viloyati statistika boshqarmasining yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tarkibiy bo‘linmasi hisoblanib, bo‘limga kelib tushadigan va chiqib ketadigan hujjatlar va murojaatlarni ro‘yxatga olish shtamplariga ega.

9. Bo‘limning joylashgan manzili: Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumani, A.Navoiy ko‘chasi 9-uy.

## **2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari**

10. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta’minlash;

xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish;

ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishslash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e’lon qilish;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni va statistik ma’lumotlardan foydalanuvchi aholini Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘yicha statistika axborotlari bilan belgilangan tartibda ta’minlash;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirop etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlash;

Bo‘limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o‘z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas’uliyatinioshirish;

ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

11. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta’minlash borasida:

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta’minlaydi;

Bo‘limning tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘radi;

*b) xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish sohasida:*

tuman statistika bo‘limi davlat statistika kuzatuvlari shakllarining joriy etilishini tashkil etadi, jumladan hisobot taqdim etuvchi sub’ektlarni tasdiqlangan davlat statistika hisoboti shakllari to‘g‘risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to‘ldirish va taqdim etish bo‘yicha tushuntirishlar beradi;

davlat statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasiga qat’iy amal qilgan holda o‘tkazilishini ta’minlaydi;

*v) ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e‘lon qilish sohasida:*

Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan ishlarnio‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi;

tuman bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlatva hududiy dasturlarining bajarilishi yuzasidan Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan davlat statistika kuzatuvlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

davlat statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda, zarur hollarda qog‘oz ko‘rinishida yig‘ishni, ro‘yxatdan o‘tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so‘rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat’iy amal qilgan holda tashkil etadiva ta’minlaydi;

statistika hisobot ko‘rsatkichlarining va o‘tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini ta’minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish bo‘yicha choratadbirlarni amalga oshiradi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ishonchli davlat statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko‘maklashadi, statistik ma’lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbazarliklarning oldini olishning ta’sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini qo‘llanishini ta’minlaydi;

statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilarga Davlat statistika qo'mitasining axborot resurslaridan foydalanishga doir tushuntirishlar beradi; olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq, Bo'lim faoliyati jarayonida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini belgilangan tartib va muddatlarda Boshqarma idoraviy arxiviga taqdim etilishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida Bo'lim faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

*g) davlat organlarini, yuridik shaxslarni va aholini hudud bo'yicha statistika axboroti bilan belgilangan tartibda ta'minlash sohasida:*

hududning rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo'yicha boshqa hududiy boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan yaqindanhamkorlik qiladi;

barcha foydalanuvchilarga ochiq statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi;

tuman bo'yicha ma'lumotlar asosida mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) tahliliy materiallar keng namoyish qilish yo'li bilan statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish choralarini ko'radi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika axborotlari masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnoma asosida boshqarma nomidan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot xizmatlarini va Davlat statistika ishlari dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi;

*d) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish sohasida:*

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrida hududda joylashgan yuridik shaxslarni to'liq hisobga olishni va ular faoliyati holatidagi o'zgarishlarni monitoring qilishni ta'minlaydi;

*e) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash sohasida:*

statistika axborotlarining tezkorlik bilan uzatilishini va qayta ishlanishini ta'minlovchi yangi axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini Bo'lim faoliyatiga joriy etishda ishtirok etadi;

davlat statistika organlari axborot resurslari va tizimlarining axborot xavfsizligini ta'minlash, davlat statistikasi axborot-hisoblash tiziminiruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarни ko'radi;

*j) Bo'limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas'uliyatini oshirish sohasida:*

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida Bo'lim ishini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'radi;

Bo'lim tegishli hududiy Boshqarma bilan kelishgan holda kadrlarining malakasi oshirilishini va qayta tayyorlanishini tizimli asosda ta'minlaydi;

rasmiy statistika sohasida huquqbazarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchlilagini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, ular bo'yicha qarorlar qabul qilinishini va qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalariga javoblar yuborilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan davlat statistikasi sohasidagi qonun hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarini, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralarini amalga oshiradi.

*z) ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish sohasida:*

ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni amalga oshiradi;

ro'yxatga olishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish ishlarini tashkil etadi;

ro'yxatga olish jarayonlarini sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi; ro'yxatga olish varaqlari va boshqa ro'yxatga olish hujjatlarining

saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi) va yo'q qilinishini ta'minlaydi.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarini ham bajarishimumkin.

### **3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi**

12. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

туман hududidagi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) davlat statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

туман hududidagi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, davlattashkilotlaridan Davlat statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so‘rash va olish;

туман hududidagi yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek, yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning registrlari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari va ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish;

туман hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakkatartibdagi tadbirkorlar faoliyatining davlat statistika kuzatuvlarini Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiya bo‘yicha olib borish va olingan ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistika axborotlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

barcha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan davlat statistikasi sohasidagi qonun hujjatlarining bajarilishini qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qilish;

olinayotgan statistika ma’lumotlarining to‘liqligi, ishonchliligi va xolisonaligini ekspertizadan o‘tkazish;

davlat statistika ma’lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish;

davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabдор shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq ma’muriy jazo choralarini ko‘rish;

davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabдор shaxslarga qo‘llaniladigan ma’muriy jarimalardan tushumlar hisobiga Davlat statistika qo‘mitasining maxsus jamg‘armasini shakllantirishda ishtiroy etish va undan belgilangan tartibda maqsadli foydalanish;

shartnoma asosida boshqarma nomidan statistik, tahliliy, axborot xizmatlari va Davlat statistika ishlari dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rsatish.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Bo'lim va uning mansabdor shaxslari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Bo'limning mansabdor shaxslari harakatlari ustidan shikoyat qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Bo'lim rahbari va xodimlari rasmiy statistika sohasidagi qonun hujjatlarini talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistik ma'lumotlar, statistik axborotlar va (yoki) ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, bergenlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek statistika ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yoxud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

#### **4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish**

15. Tuman statistika bo'limi boshlig'i hududiy boshqarma boshlig'inining taqdimnomasiga ko'ra Davlat statistika qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

16. Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim faoliyatiga umumiyligi rahbarlik qiladi va Bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda Bo'limni ifodalaydi; Bo'lim xodimlari o'rtaida vazifalarni taqsimlaydi;

Bo'lim xodimlarining majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

Bo'lim xodimlarini Boshqarma tomonidan mukofotlash, rag'batlantirish, yuqori malakasi uchun ustamalar belgilash va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash bo'yicha Boshqarmaga takliflar kiritadi;

Bo'lim xodimlarini tegishli hududiy boshqarma bilan kelishgan holda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tizimli asosda ta'minlaydi;

Bo'limga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonun hujjatlarini doirasida zarur choralar ko'radi.

Boshliq qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

**17. Lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish:**

Bo‘lim xodimlari – Davlat statistika qo‘mitasi bilan kelishilgan holda Boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

tuman statistika bo‘limlari boshliqlari – Boshqarma boshlig‘ining taqdimnomasiga ko‘ra Davlat statistika qo‘mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi.

**5-bob. Bo‘lim faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta’minoti**

18. Bo‘limning mol-mulkini Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tomonidan foydalanish uchun ajratilgan asosiy vositalar, shuningdek qiymati Samarqand viloyati statistika boshqarmasi balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

19. Bo‘limning moddiy-texnika ta’minoti Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bo‘limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot- kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o‘z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag‘batlantirish Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

**6-bob. Yakunlovchi qoida**

20. Bo‘limni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.